

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

Tong Yulduzi

2013-yil 16-sentabr
N:37 (66942)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

TIL BILGAN – EL BILADI



Prezidentimizning 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori umumta'lim maktablarida chet tillarini o'qitish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Biz bu borada amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 243-maktabga yo'l oldik.

Davomi 2-beitda



ANDIJONDA YANGI TENNIS MAKTABI



Andijon viloyati yurtimizning sharqiy tomonida joylashgan so'lim go'sha. Istiqol yillarida viloyatning qiyofasi tubdan o'zgaradi. Ayniqsa, viloyat markazi – Andijon shahri chinakam bunyodkorlik markaziga aylandi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Yosh avlodning har jihatdan sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi yo'lida ham qator ezgu ishlar amalga oshirildi.

Davomi 7-beitda

USHBU SONDA:

Diqqat! Diqqat!
Yangi rukn!

4-bet

BOLALIGIM
ERTAKLARI

6-bet

KAMOOT
VELOMARFON
TUR

7-bet

TIL BILGAN — EL BILADI

(Boshi 1-betda)

– Bu yil maktabimizga 320 nafar birinchi sinf o'quvchilarini qabul qildik, – deydi maktab direktori Nasiba opa Nishonova. – Maktabimizda o'quvchilarning til o'rganishlari uchun talaygina ibratli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1-sinf o'quvchilariga ingliz tilini og'zaki, o'yin tarzida o'rganishlari uchun kitoblar, ota-onalari uchun ingliz tilida qo'llanmalar tarqatildi. Birinchi sinflarga ajratilgan xonalar to'liq jihozlanib, multimedia, kompyuter, ko'rgazmali qurollar hamda tarqatma materiallar bilan ta'minlandi. Tajribali o'qituvchimiz Zahro Safoyeva o'quvchilar bilan mashg'ulotlar o'tmoqda.



Biz maktabga ilk bora qadam qo'ygan kichkin-toylarning chet tilini qanday o'zlashtirayotganliklarini bilish maqsadida «Ingliz tili» xonasiga yo'l oldik. Bizni jajji o'quvchilar «Good morning» deya qarshi olishdi va ustozlari bilan birgalikda bu tilda qo'shiq boshlab yuborishdi...



– Men ingliz tilida o'nga yaqin so'zlarni o'rganib oldim, – deydi 1-«A» sinf o'quvchisi Odina Ergasheva. – O'qituvchimiz bizga ingliz tilida o'rtog'imizning ismini, hol-ahvolini so'rashni o'rgatdilar.

Ustozining so'zlarini diqqat bilan tinglayotgan Mubina Asqarova esa bizga ranglarni ingliz tilida sanab berdi.

Ularning sinfdoshi Abdulloh Ergashev ingliz tilini o'rganishga maktabga chiqmasidan avvalroq kirishib ketgan ekan. U bu tilda so'zlashishga qiynalayotgan sinfdoshlariga uy vazifalarini tayyorlashda yaqindan yordam beryapti.

O'z kasbining fidoyisi bo'lgan ustoz-muallimlar qo'lida tahsil olayotgan o'quvchilarga havas qilsa arziydi, shunday emasmi, aziz o'quvchilar?!

Xo'sh, sizning maktabingizda ingliz tili qay darajada o'qitilyapti? Xorijiy tillarni mukammal o'rganishga astoydil kirishing. Chunki navbatdagi tashrifimiz sizning maktabingizga bo'lishi mumkin.

Ozoda TURSUNBOYEVA.

Suratlar muallifi: Zuhra NISHONOVA

EZGU ISHLAR DEBOCHASI

9-sinf o'quvchisi Dildora Melbekova yangi o'quv yilining ilk kunida maktabini taniyolmay qoldi. Ko'rkam va ozoda sinfxonalarga kirib, chehrasi yanada yorishdi. Ingliz tili fani uchun ajratilgan xonaning zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanganini ko'rib, hayrati oshdi:

– Ustoz, ta'til davomida biz uchun shuncha sharoitlar yaratib, maktabimizni gul-latib yuboribsizlar-ku, ko'p rahmat! Endi biz ham yaxshi o'qib, mehnat-ingizni qadrlaymiz. Men sinf sar-dori sifatida maktabdagi eng namunali sinf bo'lamiz, deya va'da beraman, – dedi o'qituvchisiga yuzlanib.

– Juda to'g'ri e'tirof etdingiz, – dedi ustoz o'quvchilariga mehr bilan boqib. – Bu ezgu ishlar, yangilanishlar davlatimizning sizlarga bo'lgan yuksak e'tibori natijasidir. Maktabimiz umum-milliy dastur asosida kapital rekonstruksiya qilindi...

Poytaxtimizning Bektemir tu-manida joylashgan 292-maktabda shunday ko'tarinki ruhda boshlangan yangi o'quv yilining har bir kuni, ayniqsa, 1-sinf o'quvchilari uchun hayajonli kechmoqda. Bu ko'rkam bilim maskaniga qilgan tashrifimizni ham Jam-bibi opa Abdasova dars o'tayotgan 1-«A» sinfdan boshladik.

– Bilasizmi, opajon, maktabimiz menga juda yoqdi, – dedi ustoz Azima Saydazimova deya tanishtirgan qizaloq hayajonini yashira olmay. – Ingliz tili

darsida ustoz bizga televizor qo'yib, dars o'tdilar. Matematikada kim ko'p sanash-ga o'ynadik.

Maktabda yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanib, Gulnora opa Duysenova va Nigora opa Masharipova jajji o'quvchilarga chet tilini o'rgatishga g'ayrat bilan kirishishgan ko'rinishadi. Ma'naviyat xonasining did bilan bezatilganini, gazeta-jurnallar taxtlarining stolda qatorlashib turganini ko'rib, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Sayyora opa Polvonovaning chin ma'noda ma'naviyat targ'ibotchisi ekanini anglash mushkul emas. Zulxumor Jumanova, Dilafruz Jumadullayeva, Umida Rasulova kabi ustozlar ularga kamarbasta. Bu dargohdagi o'quv-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'ya olgan jonkuyar maktab rahbari Umida opa Nishonbeko-

va esa hamon nimadandir tashvishlanib yurgandek ko'rinadi:

– Hali qilinadigan ishlarimiz ko'p, – deya so'z boshladi opa kamtarlik bilan. – Lingofon xonamizni kengaytirish niyatidamiz. Shu kungacha o'n to'rtta fan va to'rtta sport to'garagini tashkil etgan bo'lsak, bu yildan o'quvchi qizlar uchun gimnastika to'garagini ochdik. Qani endi bizning maktabimizdan ham jahon chempionlari yetishib chiqib, yurtimiz nomini ulug'lashsa, men eng baxtli ustozlardan biriga aylanan edim...

Biz esa ushbu maktab haqida sizga hikoya qilib, ustozlarning ezgu niyatlari debochasini boshlab berdik. A x i r mazkur maskan haqidagi maqolani gazetamiz orqali butun respublikadagi o'qituvchi-yu o'quvchilar o'qishadi, tanishadi!

Sayyora QODIROVA



hali-hanuz suhbatlashib char-chamayapmiz. Men ona tili va adabiyot faniga qiziqqanim sababli maktabimizda tashkil etilgan «Nihol» to'garagiga qatnayman. Rahbarimiz Dilfuza opa Dolimovadan matn tuzish, she'r va maqolalar yozish sirlarini puxta o'rganaymiz. Tengdoshlarim ijodidan namunalar o'qib,

TO'GARAGIMIZ DOLMO GAVJUM

Men Andijon viloyati, Jalaquduq tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 7-«V» sinfidahsil olaman. O'quv yilining boshlanishi biz uchun haqiqiy bayram bo'ldi, desam adashmayman. Ta'til taassurotlari haqida dugonalarim bilan

malakamni oshiryapman. Yozgan maqolalarim, she'rilarimdan ko'nglim to'lsa, sevimli gazetam «Tong yulduzi»ga yubormoqchiman.

Munira QODIROVA

Inson qancha ko'p kitob o'qisa va o'qiganlariga to'la-to'kis amal qilsa, o'ziga, ota-onasiga, qolaversa, butun jamiyatga foydasi tegadi.

Lekin, ba'zilar o'zini bilimdon, dono qilib ko'rsatish uchungina kitob



mutolaa qilishadi. Bu esa yomon illatdir. Donolardan qolgan shunday o'git bor: «O'zini olim, fazilatli deb maqtanish, shu bilan g'ururlanish jaholatning bir ko'rinishidir».

ILM O'RGANAYOTGANDA...



Demak, ilm o'rganayotganda: «Shu ilmni o'rganib, qo'limdan kelgancha xalqimga halol xizmat qilaman», degan pok niyatni yuragimizning tubtubiga joylab olishimiz zarur.

Azizbek HASANOV,
Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi 33-maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi



OZODLIK

Garchand baland ucha olsa-da,
Miini arichalik bo'lolmas varrak.
Chunki uning ipi o'zga qo'lida,
Erkin uchmoqlik-chun ozodlik kerak!

Sen ham, ey navqiron, zukko tengdoshim,
Ozodlik tojingdir, yuksakka intil.
O'zgalar qo'lida emas taqdiring,
Mag'rur burgut kabi samoni quchgil.

Nilufar NORBOYEVA,
Angren tibbiyot kolleji o'quvchisi



YAXSHILARGA YONDOSHDIM

Dildora avvallari yoshiga, didiga mos kitob topishga biroz qiynalardi.

O'tgan yildan ijodkorlar to'garagiga a'zo bo'ldi-yu, bu muammo hal bo'ldi. Qalamkash tengdoshlarining shaxsiy kutubxonalaridan kitoblar olib, mutolaa qila boshladi. Dunyoqarashi kengayib, ma'naviy, ruhiy olami boyiy bordi. Ayniqsa, Hazrat Navoiyning hikmatlarini o'qib, o'z kamchilik va xatolaridan xijolat bo'ldi va ularni takrorlamaslikka so'z berdi.

Bir kuni adabiyot darsida sinfdoshlari Anvar bilan Nosir sho'xlik qilib, ustoz Nargiza opaning dars o'tishiga laqaqit bera boshlashdi.

Dildora ularni tartibga chaqirdi.

Sinfdoshlari to'polonni tanaffus paytida ham davom ettirishdi. Shunda Dildoraning yodiga Hazrat Navoiy bobomizning shunday hikmatlari tushdi:

«Yuqar yomonlig' andakim, kirar yomon el aro,
Ko'mir aro qo'lin urgan, qilgay qo'lini qaro».

Darhaqiqat, yomon insonga yaqin yurgan, unga do'st tutingan kishining oxiri voydir.

Mahliyoxon MASHRAPOVA,
Farg'ona viloyati



MAKTABIM – FAXRIM

Sevimli gazetamiz sahifalarida yangi ta'mirdan chiqqan maktablar haqida o'qib, men ham o'z maktabim haqida yozgim keldi. Chunki bizning maktab ham qayta ta'mirlanib, yangi o'quv yiliga zamonaviy ko'rinishda, yangi jihozlar bilan topshirildi. Keng va yorug' sinf xonalarni ko'rib, o'qishga bo'lgan ishtiyoqimiz, g'ayratimiz oshdi. Sinf rahbarimiz Guliston opa Udayeva



mustaqillik darsida ta'kidlaganlariday, yurtimizda yaratilayotgan bu shart-sharoitlar davlatimizning bizga ko'rsatayotgan yuksak g'amxo'rligidir.

Mahbuba NURIDDINOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumanidagi 30-maktab o'quvchisi

Men xalqimizning sevimli adiblaridan biri O'tkir Hoshimovning asarlarini sevib mutolaa qilaman. Uning «Ikki eshik orasi», «Tushda kechgan umrlar», «Dunyoning ishlari», «Osmondan tushgan pul» singari kitoblari menga hayotni tanitdi, insonlar bilan o'zaro munosabatni o'rgatdi.

IJODKOR BO'LMOQCHIMAN

Yaqinda yozuvchining «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» kitobini o'qib tugatdim. Hayotiy tajribalarga tayangan holda yoshlarga ibrat bo'ladigan pand-nasihat tarzida yozilgan bu kitobni sinfdoshlarim, hatto ota-onam ham katta qiziqish bilan o'qib chiqishdi.

Men ham kelgusida ijodkor bo'lmoqchiman. Buning uchun, albatta, ko'p o'qishim, izlanishim darkor. Ijod mashaqqatidan cho'chimayman. Kelajakda sevimli adibimiznikidek asarlarim kitobxonlar orasida sevib mutolaa qilinishini istayman.

Ma'mura MAMADINOVA,
Sirdaryo viloyati, Oqoltin tumanidagi 15-maktabning 9-sinf o'quvchisi



VATAN

HAQIDA SO'Z

Aytishlaricha, chaqaloqning beshigi almashtirilsa, u tinch uxlay olmas ekan. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, agar beshikni chaqaloq uchun Vatan deb olsak, u o'z Vatandagina tinch uxlashi, orom olishi mumkin. Demak, ona yurtga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usi go'dakligimizdanoq qalblarimizda ildiz otar ekan, yoshimiz ulg'aygan sayin u ham ulg'ayib, Vatan haqidagi tasavvurlarimiz oydinlashib boraverarkan.

Vatan deganda ko'z oldimizda jonajon diyorimiz, qadrdon xonadonimiz, mahallamiz, maktabimiz gavdalanadi.

Otamiz, onamiz, akamiz, ukamiz, opamiz-u singlimizning nurli siymolari namoyon bo'ladi.

Ullarni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash - oliy baxt!

Bu ajib xilqat haqida Siz aziz o'quvchilarning ham o'z tushunchalaringiz bor, albatta. Vatan haqida aytar so'zingizni yangi ruknimizga yo'llang.



Sultonbek ZIYAYEV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Qonliko'l tumanidagi 7-maktab
o'quvchisi, tuman «Kamolot»
yoshlar ijtimoiy harakati
sardorlar Kengashi raisi:

- Har kuni dasturxon atrofida sakson yoshli buvijonim qo'llarini duoga ochib, shunday niyatlarni takrorlaydilar: «Muqaddas Vatanimiz tinch bo'lsin, daryolarimiz suvga to'lsin, rizq-ro'zimiz mo'lbosin, tani-jonimiz omon bo'lsin». Men esa «Aytganingiz kelsin», deya pichirlayman.

Buvijonim ta'kidlaganlaridek, men uchun ham Vatan muqaddas. Uning bir qarich yerini dunyolarga alishmayman. Bu balandparvoz gaplar emas. Shu qu-yoshli o'lkada emin-erkin o'smoqdaman, o'qib-o'rganishim, izlanishim uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Xo'sh, nima uchun u muqaddas bo'lmasligi kerak?!

Istiqlol yillarida yurtimiz mislsiz darajada taraqqiy etdi. Xalqimizning g'ururi, milliy urf-odatlarini, qadim an'analarini tiklandi. Yurtdoshlarimiz ulkan mehnat za-farlari bilan uning ravnaqiga hissa qo'shmoqdalar. Men ham kelgusida Mustaqil yurtimga munosib farzand bo'lishga harakat qilaman.

Komila SHOYIMOVA Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 3-umumta'lim maktabining 8-sinfida tahsil oladi.

Uning «Qaldirg'och parvozi», «Yurtning erka qiziman», «Ko'ngil chamani» nomli she'riy to'plamlari chop etilgan. Komilaxon Vatan ichra mo'jaz Vatani - Termiz shahriga bag'ishlab she'r yozibdi:

Ona shahrim, oshyonim,
To'kilgan kindik qonim,
Gul gulzorga makonim -
Jonajonim, Termizim.

Istiqloldan olding nur,
Bo'lding ozod, erkin, hur.
Noming dunyoga mashhur,
Jonajonim Termizim.



ZUBAYDA
olgan surat

IQTIDORLI TENGDOSHIM

Qadrli o'quvchilar, mana, yangi o'quv yilining uchinchi haftasini ham boshlab yubordingiz. Dars soatlaringiz jadval asosida tartibga solinib, fanlarni puxta o'zlashtirishga kirishib ketgan bo'lsangiz, ajabmas.

Yodingizda bo'lsa, har yili yangi o'quv yili boshlanishi bilan «A'lochilar doskasi» rukni orqali a'lo o'qishi, jamoat ishlari, maktab tadbirlaridagi faolligi bilan barchaga ibrat bo'ladigan o'quvchilar haqida suratli lavhalar berib borilardi.

2013-2014-o'quv yilida ham ana shu ibratli an'anani davom ettirgan holda «Iqtidorli tengdoshim» nomli yangi rukn ochishni rejalashtirdik.

Bugun ushbu ruknimiz orqali jizzaxlik yosh iqtidor egasi Aziza Shokirova haqida hikoya qilmoqchimiz.

Jizzax shahridagi 11-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi Azizaxon bilimi, ijodkorligi bilan ko'pchilikning nazariga tushgan. Adabiyot, she'riyat shaydosi bo'lgan bu qizimiz viloyat yozuvchilar uyushmasi



qoshidagi «Sangzor» adabiyot garagiga qatnab, ustozlaridan ijod sirlarini o'rganib kelmoqda. U o'z iqtidorini sinovdan o'tkazish maqsadida ko'plab ko'rik-tanlovlarda muntazam qatnashib keladi. Jumladan, o'tgan yili «Kamalak» bolalar tashkiloti, O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi jamg'armasi, yana bir qancha

tegishli tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan «Yangi avlod - 2012» bolalar ijodiyot festivalining shahar va viloyat bosqichlarida faol ishtirok etdi.

Uni adabiyot olamiga yetaklagani uchun bobosi taniqli adib, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Turob Maqsudovdan behad minnatdor.

Azizaxonning bo'sh vaqti deyarli bo'lmaydi. Darslardan so'ng ingliz, rus tillarini o'rganish maqsadida to'garak mashg'ulotlariga qatnaydi. Rasm chizish ham eng sevimli mashg'ulotlaridan biri.

- Kelajakda yetuk jurnalist, shoira bo'lish niyatidaman, - deydi tengdoshingiz ishonch bilan. - Bu yo'lda men ko'p izlanishim, ko'plab kitoblarni o'qishim lozim.

Shuning uchun ham qo'limdan kitob tushmaydi. Sevimli shoirlarim Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzoning she'rlarini o'qib, mahoratimni oshira borishga intilyapman.

Istiqlol bergan imkoniyatlardan unumli foydalanib, yosh avlodga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklarga munosib javob qaytarishni diliga tugib qo'ygan Azizaxonga yanada yuksakroq parvozlar tilab, ijod namunalaridan e'tiboringizga havola qilmoqchimiz. O'zi hali bola bo'la turib, bolalik haqida chiroyli tashbehlar aytgan, Siz ham bir o'qib ko'ring-a:

BOLALIK

Sho'xliklarga, nurga yo'g'rilgan,
Go'zal o'ylar, soflik bolalik.
Harir gulga o'rab qo'ygandek,
Gard yuqmagan poklik - bolalik.

Shirin o'ylar og'ushida goh,
Sayr etamiz cheksiz samoda.
Yayrab, o'ynab, quvnaymiz har chog',
Qushdek parvoz etib fazoda.

Bulutlardek beg'ubor davr,
U shundayin gul-u lolalik.
Sen qalbimni tark etma sira,
Go'zal o'ylar, soflik - bolalik.

Tahririyatdan: A'lochi, jamoatchi, ko'plab yutuqlarga erishgan do'stingiz, dugonangiz, sinfdoshingiz, maktabdoshingiz haqida bizga, albatta, yozib yuboring. Biz esa ularni respublikadagi barcha tengdoshlariga ibrat qilamiz.

Exercise I.

Sort these words into their correct rhyming groups.
 Quyidagi so'zlarning qofiyadoshlarini topib, guruhga ajrating.
 Chair, tight, moat, boat, pair, height, stair, bite, stoat, rare, goat, bear,
 kite, float, bright.



Words that rhyme with «light».



Words that rhyme with «coat».



Words that rhyme With «hair».

Exercise II.

Look at each word. Now write down another tree that rhyme with it.
 Quyidagi so'zlarning qofiyadoshlarini topishga harakat qiling.

- a) look _____
- b) sweet _____
- c) rear _____
- d) bread _____
- e) beach _____

Exercise III.

Sort these words into groups, containing the same letter string.
 Quyidagi so'zlarni bir xil harf birikmalari bo'lgan guruhlarga ajrating.

Aunt, hour, twice, route, sausage, practice, apprentice, shout, autumn, rice, journey, sauce.

- a) «ou» _____
- b) «au» _____
- c) «ice» _____

Risolat ISMOILOVA

1-sinfga qadam qo'ygan aziz kichkintoylar, bir-biringiz bilan tanishib olishga ham ulgurgandirsiz-a? Tengdoshlaringiz Nozima va Isroil esa bir-birlari bilan ingliz tilida tanishishga harakat qilishibdi. Siz ham quyidagi iboralar yordamida bu tilda tanishishga urinib ko'ring-chi:



- B: Hi!
- G: Hello!
- B: Do you speak English?
- G: Yes I do.
- B: How are you?
- G: Thank you, I am very well! And you?
- B: I am too.
- B: What is your name?
- G: My name is Nozima.
- G: What is your name?
- B: My name is Isroil.
- G: What is this?
- B: This is a pen. Have you got a pencil?
- G: Yes, I have.
- B: I broke my pencil. Please, give me yours.
- G: My pencil is on the table. You may take it.
- B: Thank you very much.
- B: Is this book yours?
- G: Yes, this book is mine.
- B: Have you got a true friend?
- G: No.
- B: Let's make friends!
- G: Ok! I am agree.

Nigora ABDUNAZAROVA

PUZZLES TOPISHMOQLAR

It has no wings, but it can fly away.

What animal has the longest neck?



PETTERS TEZ AYTISHLAR

Balloon, balloon, Fly to the moon.

I like my Bunny, Bears like honey. Birds like grain, Say it all again.



Gul yabroqlarining mosini tanlang.

Aziz bolajonlar, sahifamiz orqali ingliz tili saboqlarini o'rganish jarayonida biroz tanaffus qilib, jismoniy mashq bajarishga nima deysiz?! Ayni muddao bo'lardi, deysizmi, unda qanday harakatlanish kerakligini she'rni o'qib, bilib oling. Qani, boshladik!

Stand up,
 Hands up,
 Hands down,
 Hands on hips,
 Sit down.

Stand up,
 Hands to the sides.
 Bend left,
 Bend right.

Hands on hips,
 One, two, three, hop,
 One, two, three, stop.
 Stand still.



Nigora IKROMOVA,
 Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
 13-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi



– Ish pishdi, o'raga sichqon tushdi, – Tursunboy shunday deb bizga qaradi.

Hammamiz baravariga kallamizni kallamizga tirab:

- Guldur gup, – dedik.
- Chaqma-chaqar, – dedi Tursunboy.
- Tomga chiqib, olov yoqar, – dedik biz.
- Chaqma-chaqar, – dedi u yana.
- Tomga chiqib, bitini boqar, – dedik biz...

Shunday qilib, garov va qasamyodan keyin og'zimizga qulf tushdi. Bu haqda birovga gullab qo'yish yo'q. Tortishish ham yo'q. Garovni oxiriga yetkazish, yutqizganni chayonga chaqtirish o'yinboshiga havola. Sodiqov bilan ikkovimizning jonimiz garovga tikildi...

Shu kunning ertasidan moxovlarning yoniga serqatnov bo'lib qoldik. Xuddi ularsiz kunimiz o'tmaydigandek. Har kuni bitta yoki ikkita chayon tutib boramiz. Qabristonning to'rt tomonidagi shundog'am qulay-qulay deb turgan paxsa devorlar chuqalanaverib, ilma-teshik bo'lib ketdi. Shamol turib qolsa, o'sha teshiklar qo'rqinchli hushtak chalib yuboradi. Bunday ovozlarning qabristondan eshinishi vahimali bo'lib qoldi. Moxovlar bo'lsa bizdan bezillay boshlashdi. Biron yegulik olib kelishdi shekilli, deb bechoralar javdirab tuynukka ko'z tikadi. Biz bo'lsa ularga nuqul chayon solingan idish tutamiz. Va yana odob yuzasidan: «Osh bo'lsin», deb ham qo'yamiz. Ular esa chayonlarni nima qilishini bizga ko'rsatishmaydi. Tomga qo'yilgan ayyoqchilarning aytilishicha, moxovlarning hovlisida bitta jo'xori tuyadigan keli bormish. Biz olib borayotgan chayonlarni o'sha keliga solib, ustini kepchik bilan yopib qo'yishayotganmish. Ularning taxminicha, chayonlarni kelida tuyib, tolqon qilib yeyishlari mumkin ekan. Bu gap qaysidir jihati bilan Sodiqovning taxminiga yaqin edi. Unda odamlar orasida «Chayonga chaqtirishadi», degan gap qayerdan paydo bo'lgan ekan?

MAKTABGA MAKTUB KELDI...

Shunday kunlarning birida maktab hovlisida har doimgidek yig'in bo'lib qoldi. Butun maktab bolalari hovlida saf tortib turdik. Oldin yuqori sinf o'quv-

chilari, undan keyin biz. Yuqori sinf o'quvchilarining o'ziga yarasha hurmati bor. Ularning oldida direktorimiz qayta-qayta aytadigan urush oqibatlarini tugatishdek katta vazifalar turibdi. Majlisni uzoq kutib, oftobda jizb'anagimiz chiqib, toqatimiz toq bo'la boshladi. Nima gap ekan? Pilla terгани borar ekanmizmi? Ishqilib, tuti pishgan hovli bo'lsin-da, bir mazza qilib to'yib olamiz. Shu payt, maktab direktori kepti, degan gap tarqalib qoldi. Ha, ayyoqchilar doimo hushyor. Biron yangilik bo'ldimi, tamom, quloqlar ishga tushib ketadi. Maktabimizda undan bo'lak erkak o'qituvchi yo'q, hammasi ayol o'qituvchilar! Erkak o'qituvchilar urushdan qaytib kelishmagan. Direktorimiz qayoqqadir o'qib kelgani ketgan, shunga hamma yayrab qolgan edi. U qizil xirom etik, ikki yoni shishib chiqqan galife shim, oq ko'ylak,

safar qog'ozni stakan ustiga kafti bilan bosib-bosib qo'ydi. Endi nari ketmay, bir muddat ustida qarab turdi. Qog'ozga yana jon bita boshlagan edi, mudira opa qo'rqib ketib: «Ajina, ajina», deb o'zini ayol o'qituvchilar orasiga urdi. Biz endi kulishni ham, kulmaslikni ham bilmay, hayratdan qotib qolgan edik.

Direktor bir-birlariga suqilishib turgan ayol o'qituvchilarga va bizga «qo'rq-manglar» degandek qarab qo'ydi-da, uchib tushgan qog'ozni o'zi yerdan olib, yana stakan ustiga qo'ydi, keyin til-la qisqichli avtoruchkasini olib, qaysidir duo so'zlarini yozib, qog'ozning ustiga bostirib qo'ydi. Jin endi qog'ozni ko'tarib chiqa olmadi. Biz bolalar ko'zlarimizning paxtasi chiqib, baqa bo'lib qolgan edik. To'xtasin sekin biqinimga turtidi. Cho'chib tushdim. Qarasam, uning rangida qon yo'q. Ko'zlari qinidan chiqay

BOLALIGIM ERTAKLARI

(O'issa)

qizil galstuk, charm shapka kiyib yurardi. Olifita, ichi to'la gap edi. Bir gapga tushib ketsa bormi, menga o'xshagan och-nahor yuradigan bolalar tik oyoqda tura olmay, o'zini tappa-tappa tashlab yuborar edi. Direktorimiz o'qib kelgan bo'lsa, endi bu yog'i tongotar bo'ladi, deb shivirlashadi bolalar...

Ana, nihoyat, direktorimiz bir to'da ayol o'qituvchilar bilan ichkaridan chiqib keldi. Direktorning borgan joyida mazasi bo'lmay qolganmi, ishqilib, yuzini boshqalardek bahor oftobi qoraytirmagan edi. Bu u kishini oqsuyak qilib ko'rsatardi. Avvaliga yakkam-dukkan chapak chalindi-yu, keyiniga borib maktab hovlisiga tomondan bir arava tarasha tushgandek bo'lib ketdi. Direktor qo'lini ko'ksiga qo'yib: «Bag'oyat mamnunman, mamnunman...», degandek o'ngga, so'lga qarab bosh egib qo'ydi. Shu payt ilmiy mudiramiz uzun ko'yilgiga o'rala-o'rala pildillavolib bir dona suyan-chiqsiz kursi olib chiqib, direktorning shundoqqina oyog'ining tagiga qo'ymoqchi bo'ldi. Direktor bo'lsa qo'lining orqasi bilan «Mendan nariroq qo'ying», degan ishorani qildi. Kursida nimagadir bir juft mallarang qo'lqop, bir stakan suv turardi. Stakandagi suvga chang tushmasin debmi, ilmiy mudira opamiz qaysi bir o'quvchining daftaridan yirtib olgan bir vara qog'ozni yopib qo'ydi. Ammo burilib ketayotganda ko'yilgining shamoli tegdimi, ishqilib, qog'oz uchib, oyoq ostiga tushdi. Buni ko'rgan ilmiy mudira o'zining epsizligidan uyulib, qizarib-bo'zarib, qog'ozni olib, yana stakan ustiga qo'ydi. Keyin qo'li bilan «Endi ucha ko'rma», degandek ishora bilan orqamacha yurib, joyiga turmoqchi bo'ldi. Ammo qog'ozga yana jon bitib, uchib tushdi. Ilmiy mudira yana shoshib qoldi... U yer-bu yerdan piqillab kulgan ovozlari eshitildi. Direktorimiz sal iljayib qo'rgan edi, kulgi gurillab ketdi. Ilmiy mudira boyagi ishini yana qaytardi. Bu

deydi. «Qocha qolaylik», dedi u yig'lamsirab. «Jim tur, o'zimiz zo'rg'a turibman, oldin katta sinflar qochishni boshlashsin... Keyin biz!» To'xtasin birpas jim turadi-da, yana ming'irladi: – Direktorimiz jodugarlikka o'qib kelganga o'xshaydi, sen nima deysan-a? – Sen haqсан, jim bo'!

Direktorimiz stakandagi jinni ham esidan chiqarib, borgan joyidagi obodonchiliklar haqida, odamlarning yuz-ko'zlaridan kechagi urush azoblari ko'tarilib, uning o'mini ertangi kunlarga ishonch alomatlariga egallab borayotgani haqida to'lib-toshib gapirdi. U o'xtin-o'xtin tomoq qirib, qo'llarini hali u yoqqa, hali bu yoqqa yozib, o'z hayratini namoyish qilar, bu bilan bizlarni ham hayajonga solmoqchi bo'lardi. Biz bo'lsa direktor maqtayotgan joylarni, odamlarni ko'rmaganimiz uchunmi, esnoq tutib, bez bo'lib turardik. Ammo mening ko'zim ajinani bosib turgan tilla qisqichli ruckkada edi. Men bu ruckkaning siyohi qayeridan chiqadi-yu, qanday qilib yozishini tomosha qilgim kelardi...

To'xtasin endi meni haligiday turtmay, qo'limni ushlab, sekingina silkidi.

– Gapir, sen nima deb o'ylaysan-a, anavi kursining ustidagi qo'lqop nimaga?

Men bu haqda o'yab ko'rmagan edim.

– Jang bo'ladiganga o'xshaydi, – dedim.

TAHRIRYATDAN:

Aziz o'quvchilar, taniqli bolalar yozuvchisi Erkin Malikning «Bolaligim ertaklari» qissasidan berib borilayotgan parchalarni zo'r ishtiyok bilan o'qib borayotgandirsiz. Uni nafaqat Siz, balki katta yoshli gazetxonlarimiz ham maroq bilan o'qib borishayotganini ta'kidlashaypti. Adibimiz yaqin kunlarda mazkur qissaning kitob xolida chop etilishini ma'lum qildilar. Keling, «Bolaligim ertaklari»ning davomini kitobdan o'qiylik.



S. FARMONOV chiqqan rasmlar

– Mana sizlarga isbot-dalili, – dedi direktor. – Aybdorlar oramizda turishibdi, qochib qolamiz, deb ovora bo'lishmasin, osmonga chiqsa oyog'idan, yerga kirs qulog'idan tortamiz...

Biz, kim ekan u aybdorlar, degandek bir-birimizga qarab oldik. Nahotki, aybdorlarning stakandagi jinga aloqasi bo'lsa?!

Direktor birdan kursi ustidagi qo'lqopni panjalariga kiya boshladi. «Boshlanyap-ti», deb To'xtasin pinjimga kirib, qo'limga yopishdi. «Nariroq tur, muncha yopishasan, shundog'am terlab ketyapman», deyman uni o'zimdani itarib. Qayda, u o'takasi yorilib, battar yopishadi. Direktor qo'lqopni xuddi qishdagidek tortib-tortib, yaxshilab kiyib oldi. O'rmasdimi, deb musht qilib ko'rdi. Yengi kalta ko'ylak kiygani uchunmi, bu juda g'alati ko'rindi. Lekin direktorning shunday issiq kunda qo'lqop kiyib olishi yaxshilikka emas edi...

«KAMOLOT-TUR» VELOMARAFONI

Mamlakatimizning bir qancha viloyat va tumanlarida «Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston!» shiori ostida yoshlar o'rtasida «Kamolot-TUR» velomarafoni bo'lib o'tdi.



Nukus shahrida qator vazirlik, uyushma va tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan musobaqada 134 nafar havaskor velosportchi ishtirok etdi.

Shahar markazidagi «Toshkent» mehmonxonasi yonidan start olgan velomarafon yakuni-

da 9-14 yoshli o'smirlar o'rtasida Iltom Esaliyev, 15-17 yoshliardan Paraxat Xolmuratov birinchi bo'lib marraga yetib keldi. G'oliblar musobaqaning Toshkent shahrida o'tkaziladigan final bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati viloyat Kengashi, madaniyat va sport ishlari, ichki ishlar, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmalari, O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, «Mahalla» xayriya jamoat fondi viloyat bo'limlari hamkorligida tashkil etilgan tadbirda 450 havaskor velosportchi ishtirok etdi.

Jizzax shahri Jellig'uli mahallasidan viloyat markazidagi Mustaqillik maydonigacha bo'lgan 10 kilometrlik

masofada

o'tkazilgan poy-

gada marraga

birinchi bo'lib

18-30 yoshli-

lardan Jizzax

shahri vakili Ho-

jiakbar Po'latov

yetib keldi. 15-17

yoshli havaskor-

lardan Jizzax alo-

qa-transport

kolleji o'quvchisi Muxtor Saidov g'olib bo'ldi. 9-14 yoshli

poygachilar o'rtasida birinchi o'rin Jizzax tumanidan Husan Hotamovga nasib etdi.

Musobaqada «Eng yosh poygachi», «Faxriy poygachi», «Eng mahoratli poygachi qiz» yo'nalishlari bo'yicha ham g'oliblar aniqlandi.



Chirchiq shahrida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati ning Toshkent viloyati Kengashi va bir qator tashkilotlar hamkorligida «Kamolot-TUR» VI yoshlar velomarafonining viloyat bosqichi o'tkazildi.


Velomarafonda viloyatdagi ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan, korxonalar va tashkilotlarda mehnat qilayotgan yuz nafarga yaqin o'quvchi-yoshlar - havaskor velosportchilar ishtirok etdi.

Mazkur marafonda qatnashganlardan xursandman, - deydi angrenlik Humoyun Mamatov. - Bunday musobaqalar biz yoshlarni sportga, xususan, velosportga bo'lgan qiziqish va intilishimizni kuchaytirib, yangi do'stlar orttirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga xizmat qiladi.

Velomarafonda chirchiqlik Otamurod O'rinov va Shomansur Abdumannopov, qibraylik Umid Mirvaliyev marraga birinchi keldi. Ular tadbirning mamlakat bosqichida ishtirok etadi.

Musobaqada «Eng yosh poygachi», «Eng mahoratli texnik poygachi» kabi nominatsiyalar bo'yicha ham g'olib va sovrindorlar aniqlandi.

Shoh MUHAMMAD



ANDIJONDA YANGI TENNIS MAKTABI

(Boshi 1-betda)

Bugun shaharni kezarkansiz, bir-biridan chiroyli va zamonaviy sport inshootlari, madaniy-ma'rifiy markazlar, ta'lim maskanlarini ko'rib, aqlingiz shoshadi.

Quvonarlisi, viloyat yoshlari davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan ana shu imkoniyatlardan unumli foydalanib, turli xalqaro sport musobaqalari, nufuzli san'at festivallari, fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli qatnashib, yurtimiz nomini dunyoga tanitmoqdalar.

Kuni kecha Andijon shahrida ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari tennis maktabining foydalanishiga topshirilishi, Prezidentimiz tomonidan yosh avlodga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yana bir yorqin ifodasidir. Aytish mumkinki, ushbu maktab andijonlik yoshlar uchun Mustaqillik bayramining 22 yilligiga munosib sovg'a bo'ldi.

Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi barcha qulayliklarga ega ushbu dargoh qurilishiga 2013-yil boshida O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 1 milliard 840 mil-

- Keyingi yillarda viloyatimiz yoshlari tennis bo'yicha respublika va xalqaro musobaqalarda muntazam ravishda sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Mubina Vahobova, Muhammadaziz Mamajonov, Viktoriya Skarovarova kabi yosh tennischilarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz, - deydi maktab direktori Laylo Sagadeyeva. - O'yaymanki, tennis maktabimizning yangidan qurilib foydalanishiga topshirilishi ular safini yanada kengaytiradi.

- Badminton yoshlarimiz orasida ommalashib borayotgan sport turlaridan biri sanaladi. Men ham, mana bir necha yildirki, shu sport turi bilan muntazam shug'ullanib kelaman. O'tgan vaqt oralig'ida O'zbekiston chempionati va kubogi musobaqalarida sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritdim. Kelajakda Olimpiada va jahon chempionatlarida g'olib bo'lmoqchiman, - deydi ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar olimpiya zaxiralari tennis maktabi tarbiyalanuvchisi Surayyo Ahmadjonova.

Maqolani o'qib, Sizda ham sportning biror turi bilan shug'ullanish istagi tug'ildimi? Agar shunday bo'lsa, biz bundan



lion so'm pul mablag'lari ajratilib, qisqa vaqt oralig'ida maktabda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Natijada, 440 nafar viloyat yoshlari tennis, stol tennisi va badminton bilan muntazam shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ayni paytda ochiq va yopiq kortlar, sauna, dush, tibbiyot xonasi, trenajor zallari yosh tennischilar ixtiyorida.

bag'oyat xursandmiz. Kekchirmay, darhol o'zingiz tahsil olayotgan ta'lim maskanidagi sport to'garaklaridan biriga a'zo bo'ling. Ishonamizki, kelajakda Siz ham Osiyo va jahon chempionatlari va Olimpiada o'yinlarida g'olib bo'lib, Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarasiz.

Sa'dullo TURSINOV



XAYOL

Maysazorda o'ltirib,
Xayolim qochib ketdi.
O'ylarimni munchoqday,
Har tomon sochib ketdi.

Oppoq bulut ot bo'lib,
- O'tir, - dedi, - ustimga.
Samo-yu falak uzra,
Quyunday chopib ketdi.

Yulduzlar chug'urlashib:
- Bizlar bilan qol, - dedi.
- Samoda bog' barpo qil,
Katta bino sol, - dedi.

U binolar munavvar,
Nurlar sochib turadi.
Samodan har tong turib,
Yerga ta'zim qiladi.

Atrofimda ming yulduz
Bo'lsalar ham parvona.
Hech biri mehringizni,
Bera olmadi ona.


O'rtoqlarim, maktabim,
Mahallam, jonim yurtim.
Hammangizni sog'indim,
Otinga buyruq berdim.

Meni tezroq olib tush,
O'z go'shandan qolmayin.
Mehnat qilib Vatanga,
Terlar to'kib tolmayin.

Xayr, sizga, yulduzlar,
Nuringiz sochib turing.
Omad tilab, duoga
Qo'lingiz ochib turing.

Mo'tabarposhsha **QORIXONOVA**,
Andijon viloyati

BO'SHO'TIRMA, BOSH QOTIR!



Javobning bosh harfi so'zlarda ko'rsatilgan:

1. Ovora.
2. Rivoyat.
3. Shohning qizi.
4. Qir.
5. Deraza asosi.
6. Rang turi.
7. Odillik.
8. Mashhur shoir.
9. Tog' mevasi.

1. Buyruq.
2. Qimmat emas.
3. San'at turi.
4. Uy parrandasi.
5. Ho'l meva.
6. Tinish belgisi.
7. Issiq qit'a.

Tuzuvchi:
Fayzulla
ABDULLAYEV

Keling, erтак o'qiyimiz!

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonda bir mamlakatda go'zal malika yashagan ekan. U o'ziga bino qo'ygan, juda tantiq, erka, takabbur va qaysar ekan. Bir kuni bog'ga sayrga chiqqan malikani ko'rib qolgan bog'bon yigit unga oshiq bo'lib qolibdi.

- Bog'ingdagi eng xushbo'y va go'zal gulni menga olib kel, - debdi malika husniga mahliyo bo'lib qarab turgan bog'bonga.

- Malikam, men bu gulni boshqalarga ko'rsatsam-da, sizga ko'rsata olmayman, - deya javob beribdi yigit gunohkorona bosh egib.

Shunda malikaning jahli chiqib, soqchilariga qarata:

- Jallodni chaqiringlar, bog'bon buyrug'imga itoat etmadi. Uning boshini tanasidan judo etinglar, - debdi.

Jallod endi hukmni ijro

QAYSAR MALIKA



etmoqchi bo'lganida, malika yana bog'bondan:

- Hoy, nima uchun mening istagimni bajara olmaysan? Xohishimni amalga oshirsang, seni avf etaman. Xo'sh, rozimisan? - deb so'rabdi.

Shunda bog'bon:

- Chunki bog'imdagi gullarning eng go'zali va xushbo'yi sizsiz, malikam, - deb javob beribdi.

Bunday iliq so'zlarni eshitgan malika hang-u mang bo'lib qolibdi va qaysar, takabbur fe'lini o'zgartirib, dono malikaga aylanibdi. Bog'bon yigitga turmushga chiqib, mamlakatni birga adolat bilan boshqarishibdi.

Ilmira SAGDULLAYEVA,
Toshkent shahar
«Barkamol avlod»
bolalar ijodiyot
markazi a'zosi



Bosh muharrir
Feruz JALILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi muharrir
Axtamqul
KARIMOV
Rassom
Feruz
MATYOQUBOV
Dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Musahhib
Nargiza
ABDULLAYEVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeksi: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
go'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 47455
Buyurtma N: J 8054

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi
Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jam'asmi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.